

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

Oriental Journal of History, Politics and Law
Шарқ тарихи, юриспруденция жана хукумият
ISSN 2191-2704
2022 VOLUME - 2
Ber. 10.22/04/pdf

EVALUATIVE JUDGMENTS AS THE BASIS OF A POINT OF VIEW AND AS AN ARGUMENT

Dilbar Fayzikhodjaeva

associate professor, DSc

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: dilbarirgasheva56@yandex.com

ABOUT ARTICLE

Key words: evaluation, value judgment, argumentative discourse, evaluative discourse, point of view, thesis, argument.

Received: 28.10.24

Accepted: 30.10.24

Published: 01.11.24

Abstract: Argumentative discourse is characterized by multitasking of axiological or emotional impact, emotionally colored meanings of words, the formation of opposition in the form of positive or negative assessments. Speaking about evaluative discourse, special attention is also paid to the speech situation, the specific intentions of evaluative units, and the purposeful use of evidence for evaluation. Individuality is one of the most important features of evaluative discourse, which manifests itself in various purposeful actions of the speaker in communication. The article examines the features of value judgments as points of view and arguments in argumentative discourse.

BAHOLOVCHI MULOHAZALAR NUQTAI NAZARNING ASOSI VA ARGUMENT SIFATIDA

Dilbar Fayzikodjaeva

dotsent, DSc

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: dilbarirgasheva56@yandex.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: baho, baholovchi mulohaza, argumentativ diskurs, baholovchi diskurs, nuqtai nazar, tezis, argument.

Annotatsiya: Argumentativ diskurs aksiologik yoki emotsiyonallik jihatidan ta'sirchan, hissiy bo'yodkor so'z ma'nolarining ko'p vazifaviyligini ta'minlovchi xarakterga egaligi, baholarning ijobiy yoki salbiyili nuqtai nazaridan

oppozitsiya hosil qilishi bilan xarakterlanadi. Baholash diskursi haqida gapirilganda, nutqiy vaziyat, baholovchi birliklarning o‘ziga xos intensiyalari, baholashga xizmat qiluvchi dalillardan munosabat bildirishda maqsadli foydalanish masalasiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Individuallik baholovchi diskursning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, u o‘zaro muloqotda so‘zlovchining turli maqsadli harakatlarida namoyon bo‘ladi. Maqolada argumentativ diskursda baholovchi mulohazalarning nuqtai nazar va argument sifatidagi o‘ziga xos jihatlari tadqiq qilinadi.

ОЦЕНОЧНЫЕ СУЖДЕНИЯ КАК ОСНОВА ТОЧКИ ЗРЕНИЯ И КАК АРГУМЕНТ

Дилбар Файзиходжаева

доцент, DSc

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: dilbarirgachevna56@yandex.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: оценка, оценочное суждение, аргументативный дискурс, оценочный дискурс, точка зрения, тезис, аргумент.

Аннотация: Аргументативный дискурс характеризуется многозадачностью аксиологического или эмоционального воздействия, эмоционально окрашенными значениями слов, формированием оппозиции в виде положительных или отрицательных оценок. Говоря об оценочном дискурсе, особое внимание уделяется также речевой ситуации, конкретным намерениям оценочных единиц, целенаправленному использованию доказательств для оценки. Индивидуальность – одна из важнейших особенностей оценочного дискурса, которая проявляется в различных целенаправленных действиях говорящего в коммуникации. В статье рассматриваются особенности оценочных суждений как точек зрения и аргументов в аргументативном дискурсе.

Kirish. Nuqtai nazar ko‘pincha baholovchi mulohazalar vositasida bayon qilinadi. Baholovchi mulohaza – ob’ektning mutlaq (absolyut) yoki qiyosiy qimmatini bildiruvchi, unga baho beruvchi mulohazadir. Baholovchi mulohazalar chin ham, xato ham bo‘lmaydi. Argumentativ diskursda baholarning ob’ektivlik darajasining yuqori bo‘lishi juda muhim. Baho norma bilan bog‘liq. Ularning har ikkisi ham inson faoliyatining deyarli barcha ko‘rinishlarida zaruriy asos hisoblanadi. Faoliyatning to‘g‘ri baholanishi va mavjud normalarga mos bo‘lishi uni

muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Baholovchi mulohazalar individual kommunikatsiyada keng qo‘llaniladi. Ular deskriptiv, ya’ni tasvirlovchi mulohazalardan farq qiladi. Shu bois ham argumentlash jarayonida ularni qo‘llash usullarini tadqiq qilish nuqtai nazarlarni asoslovchi argumentlarning maqbulligi, relevantligi va yetarliligi bilan bog‘liq holatlarning mohiyatini tushunishga imkon yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqot mavzuimiz argumentlash jarayonida baholovchi mulohazalarning qo‘llanishi bilan bog‘liq bo‘lgan bois, mavzuga oid mantiq, argumentlash va baholash bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy adabiyotlarni o‘rganib chiqdik. Argumentlashning nazariy asoslari X.Perelman, L.Olbrecht-Titeka, F. Van Yeemerden, D.Uolton, A.A. Ivin, Ye.N. Lisanyuk, I.V.Gerasimova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida bayon qilingan. Baholarning semantik va lingvistik jihatlari N.D. Arutyunova, E.M. Volf tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa, A.S.Xotsey baholovchi mulohaza bilan qadriyat mulohazalari o‘rtasidagi tafovutni tadqiq qilgan. G‘.S. Qambarov esa baho munosabati va uning o‘zbek tilida ifodalanishi bo‘yicha tadqiqot olib borgan. Baholarning argumentlash bilan aloqadorligi A.A.Ivin. E.N. Lisanyukning tadqiqotlaridan o‘rin olgan. Maqolada mazkur tadqiqotlardan farqli xolda baholovchi mulohazalarning argumentativ diskursda nuqtai nazar va argument sifatida qo‘llanishi tadqiq etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning analiz, sintez, umumlashtirish, gerenevtik tahlil usullari qo‘llangan.

Tahlil va natijalar. Antropotsentrik nazariyaga ko‘ra inson tabiat va jamiyatning asosiy figurasi bo‘lib, u jamiyatda yuz berayotgan voqeа-hodisalar markazida turadi. U ob’ektiv olamdagи o‘z hayoti va faoliyatiga aloqador bo‘lgan voqeа-hodisalar, harakatlardan ta’sirlanadi va o‘z navbatida ularga munosabat bildiradi. Bu munosabat turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Uning hayotiy tajribalari asosida chiqargan xulosalari, asosli, teran mushohadalari falsafiy bahoni, ijtimoiy hayotdagi turli holatlarga o‘z tafakkuri mezonlariga tayanib munosabat bildirishi mantiqiy bahoni yuzaga keltiradi. So‘zlovchining munosabat bildirishda jamiyatning axloqiy qoidalariga amal qilishi etik bahoni, o‘z sezgilar, didiga tayanishi estetik bahoni, aqliy va his-tuyg‘ularga asoslanishi esa, psixologik bahoning shakllanishi uchun asos bo‘ladi. Baholash qanday ko‘rinishda bo‘lmisin, faqat lisoniy birliklar vositasidagina ifodalanadi. Boshqacha aytganda, baholashning turli ko‘rinishlarini o‘zaro tutashtirib turuvchi chorraha markazida insonning nutqiy faoliyati turadi. Insonning turli voqeа-hodisa, narsa va predmetlardan zavqlanishi, ichki kechinmalari o‘zaro muloqotda tildagi mavjud baholovchi birliklar vositasida yuzaga chiqadi.

Muloqot jarayonida aytilgan u yoki bu holatlar suhbatdoshlar tomonidan har xil qabul qilinishi mumkin. Har bir inson o‘zi mavjud bo‘lgan muhitning mahsulidir. Faylasuf olim B.O.Turaev ta’kidlaganidek, inson bu dunyoning strukturaviy elementi sifatida jamiyatdagi barcha

aloqadorliklarni o‘zida aks ettiradi va muayyan mo‘ljallarga qarab ongli harakat qiladi [7.]. Shu bois, muloqotga kirishuvchilar bir xil axborotni har xil (ijobiy,salbiy,befarq) qabul qilishlari tabiiy. Muloqot qiluvchilar uchun axborotning ahamiyatililik darajasi ularning shu axborotni qanday talqin qilishlari va baholashlariga bog‘liq. Bir axborot turli auditoriya tomonidan turlicha talqin qilinishi va turlicha baholanishi mumkin[8.55]. Kommunikatsiya jarayonida fikr-mulohazalarning kelishmovchiligi biron-bir ob’ekt yoki hodisaning turlicha baholanishi, baholar tizimidagi farqlar bilan izohlanadi.

Nuqtai nazar ko‘pincha baholovchi mulohazalar vositasida bayon qilinadi. Baholovchi mulohaza – ob’ektning mutlaq (absolyut) yoki qiyosiy qimmatini bildiruvchi, unga baho beruvchi mulohazadir. Baholovchi mulohazalar chin ham, xato ham bo‘lmaydi.

Baholovchi mulohazalarni tasvirlovchi mulohazalar kabi ob’ektiv ishonchli, deb qat’iy tasdiqlab bo‘lmaydi. Lekin, ularni sub’ektiv, demak, ishonchsiz deb, hisoblash ham noto‘g‘ri. Baholovchi mulohazani *r* bilan belgilasak, unda uning qiymati chin va yolg‘on orasida: ***I < p > 0*** bo‘ladi (bunda 1-chin, 0-yolg‘on).

Baholarning ob’ektivlik darajasi bilan asoslangan bo‘lishi to‘g‘ri proporsional bog‘langan.

Bilamizki, baholar chin yoki yolg‘on bo‘lmaydi. Agar auditoriyani biron bir tasvirlovchi mulohazaning maqbulligiga ishontirmoqchi bo‘lsak, avvalo, bu mulohazaning chin ekanligini yoki hech bo‘limganda haqiqatga yaqin ekanligini e’tiborga olish kerak bo‘ladi. Lekin, baholovchi mulohazalarning maqbulligiga auditoriyani ishontirish uchun bu usulni qo‘llab bo‘lmaydi.

Baholovchi mulohazalarda baholash sub’ekti (yakka shaxs, guruh, jamoa, ijtimoiy institutlar) eksplitsit yoki implitsit namoyon bo‘ladi[4.12]. Sub’ekt va ob’ekt o‘rtasidagi munosabat ifodalanishida baholash xarakteri muhim o‘rin egallaydi. U baholanayotgan ob’ektning sub’ekt uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatga egaligiga hamda sub’ektning ob’ektga nisbatan talab va ehtiyojiga qarab belgilanadi. Sub’ektning ob’ektga nisbatan turli munosabat bildirishga undaydigan qarash va dalilillari baholash asosi hisoblanadi [5.20]. Baholash asosi muqim emas, chunki, jamiyat taraqqiy qilar ekan, kishilarning narsa va predmetlar, voqeа - hodisalarga munosabati ham shunga mos holda o‘zgarib turadi. Shunga bog‘liq holda jamiyat tomonidan belgilab qo‘yilgan me’yorlar, baho mezonlari, qat’iy lashgan tasavvurlar ham ma’lum bir o‘zgarishlarga uchraydi. Bir davr uchun maqbul ko‘rilgan o‘lchov va mezonlar boshqa davrda qabul qilinmasligi, talab va ehtiyojlarga mos kelmasligi baholashning o‘zgaruvchan tabiatini belgilaydi.

Baholar ijobiy yoki salbiy mazmunga ega bo‘ladi va o‘zaro farq qiladi. Ijobiy baholashda baholash ob’ektiga xos xususiyatlar haqida ma’lumot berilganda ma’qullah sezilib turadi. Bunda ifodalanayotgan fikr sub’ektning baholash uchun asos bo‘lgan faktlarga, aytilgan propozitsiya muhimligiga ishonchini o‘zida aks ettiradi. Salbiy baholashda esa uning aksi kuzatiladi. Bunda

ma'qullamaslik, norozilik, xatolikka ishora sezilib turadi. Baholar kontekstual ta'riflanadi, ya'ni ijobjiy yoki salbiy baho boshqa bir tushunchaga murojaat qilish orqali aniqlanadi [3.36]. Baho tushunchasi argumentativ diskursning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi.

Tasvirlash va baholash o'rtasidagi chegarani aniq belgilash nuqtai nazarni aniq bayon qilish va argumentlarni to'g'ri tanlashning muhim shartlaridan biridir. Ma'lumki, argumentlanayotgan nuqtai nazar tasvirlovchi mulohazalardan iborat bo'lsa, unda auditoriyani ishontirish uchun bu mulohazalarning chinligini, hech bo'lmasa, haqiqatga yaqinligini asoslash kerak bo'ladi. Nuqtai nazar baholovchi mulohazalar vositasida ifodalansa, uning chinligidan ko'ra yaxshi (foydali) yoki yomonligi (zararli)ni ko'rsatib asoslanadi. Shuning uchun ham mantiqshunos olim A.A.Ivin tasvirlovchi mulohazalarni asoslash bilan baholovchi mulohazalarni asoslash o'rtasida asimmetriya mavjud, deb ta'kidlaydi[6.90]. Baholovchi mulohazalar qaysi davrga (o'tgan, hozirgi va kelasi) taalluqli bo'lmasin, baholovchi sub'ektning fikri bo'lganligi uchun ham, hamma tomonidan birdek qabul qilinmaydi va baholash ob'ektiga nisbatan boshqalarning ham o'z fikri (bahosi) bo'lishi ko'pincha bahs munozaralarga sabab bo'ladi. Bundan baholovchi mulohazalarni asoslab bo'lmaydi degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Baholovchi mulohazalarni argumentlashda argumentlarning kuchli bo'lishi ularning maqbulligi (acceptability), relevantligi (relevance), va yetarliligiga (sufficiency) bog'liq bo'ladi [1.93-107].

Baholovchi mulohazalarni argumentlashda quyidagilarga e'tibor berish talab qilinadi:

1. Tezis baholovchi mulohaza bo'lganda, hamma argumentlar tasvirlovchi mulohazalardan iborat bo'lsa, tezisni dalillab bo'lmaydi. Misol uchun,

Tezis: Mening do'stim aqli.

Argumentlar: N mening do'stim. Do'stim shaxmat o'ynaydi.

Bu argumentlar “Do'stim shaxmat o'ynaydi” degan tezisni asoslaydi. Argumentlar berilgan tezisni asoslamaydi.

2. Tezis baholovchi mulohaza bo'lganda, argumentlardan hech bo'lmasa bittasi baholovchi mulohaza bo'lishi shart. Yuqoridagi misolni bir oz o'zgartiramiz:

Tezis: Mening do'stim aqli.

Argumentlar: Mening do'stim shaxmat o'ynaydi. Shaxmat o'ynaydiganlar aqli bo'ladi. (Tezis to'g'ri asoslandi.)

3. Baholovchi mulohazalar nuqtai nazar (tezis) bo'lganda, uni shartli qat'iy xulosa chiqarishning tasdiqlovchi va inkor etuvchi moduslariga muvofiq qanday argumentlanishini tahlil qilamiz:

Tezis: N mashxur oshpaz.

Argumentlar: Agar oshpaz tayyorlagan taomlari bilan boshqa oshpazlar orasida g‘olib bo‘lsa, unda u mashhur bo‘ladi. N tayyorlagan taomlari bilan boshqa oshpazlar orasida g‘olib bo‘lgan.

Baholovchi mulohazalar asos bo‘lgan dilemmalar ham nuqtai nazarni argumentlashda keng qo‘llanadi. Argumentlashning bu usulida masalaning yechimi bilan bog‘liq alternativalardan birining boshqasidan afzalligi haqida xulosa qilinadi. Bunga Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklarida” keltirilgan kengash a’zolarining fikrini tinglab, ulardan qaysi biri kam xatarli bo‘lsa, shuni tanlaganman, degan xulosalari misol bo‘ladi [2.25-26.].

Baholovchi mulohazalar argumentlashda ham tezis, ham argument bo‘lib keladi. Masalan:

Tezis: Axloqiy fazilatga ega bo‘lganlar yaxshi do‘st bo‘ladi.

Argumentlar:

Halol insonlar yaxshi do‘st bo‘ladi.

To‘g‘riso‘z insonlar yaxshi do‘st bo‘ladi.

Samimiylar yaxshi do‘st bo‘ladi.

Halollik, to‘g‘riso‘zlik, samimiylar axloqiy fazilatlardir.

Bu misolda argumentlashning to‘liqsiz induksiya usuli qo‘llanilgan.

Baholovchi mulohazalarni argumentlashda analogiya usulini qo‘llash.

Tezis: Hasadgo‘y inson o‘ziga zarar qiladi.

Argument: Olov o‘tinni yeb bitirganidek, hasad insonni yeb bitiradi.

Baholovchi mulohazalarni argumentlashda abduktiv usulni qo‘llash. Abduksiya faktlar o‘rtasidagi ma’lum bir muntazamlilikni aniqlashga yo‘naltirilgandir. Bu muntazamlilik dastlabki gipoteza ko‘rinishida ifodalanadi. Dastlabki gipotezani qayta-qayta aniqlashtirish orqali mavjud faktlarni tushuntirish va baholash mumkin bo‘ladi.

Tezis: N. oljanob inson.

Argumentlar: men N. ni tanimasam ham, u menga yordam berdi. N. mendan “Ahvolingiz yaxshimi?”, deb so‘radi. N. menga hurmat bilan munosabatda bo‘ldi. U oljanob inson bo‘lsa kerak.

Baholovchi mulohazalarni argumentlash usullarining tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, tezis baholovchi mulohaza, argumentlar esa, tasvirlovchi va baholovchi mulohazalardan iborat bo‘ladi.

Xulosa. Argumentativ diskursda baholash sub’ektining hayotiy tajribalari, baholanuvchi ob’ektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi va munosabat bildirishi, ijtimoiy tajribasi bahoda o‘z aksini topadi. Shuningdek, baho yakka shaxsning ijtimoiy mavqeい, dunyoqarashi, oлган tarbiyasi, ma’lumoti, kasbi, yashash tarzi, iste’dodi kabilalar bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Inson o‘z hayoti, faoliyati jarayonida o‘zini o‘rab turgan ob’ektiv borliq bilan tinimsiz munosabatda bo‘ladi. U predmetlar, hodisalar, turli vaziyatlarni, boshqa sub’ektlar hatti-harakatlarini,

shuningdek, o‘z imkoniyatlarini, harakatlari natijalarini baholab boradi. Mazkur holat sub’ektning sub’ektga bo‘lgan munosabatida bahoning so‘zlovchi psixikasi va ongiga ta’sir o‘tkazuvchi vosita ekanligini ham ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Johnson R.H., Blair J.A. Informal logic: an Overview // Informal logic. 2000. No. 20.
2. Темур тузуклари. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1996.
3. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. События. Факты. Москва: Наука, 1988.
4. Вольф Е.М. Функциональная семантика оценок. Москва: Едиториал. УРСС, 2002.
5. Ивин А.А. Человеческие предпочтения. Москва: ИФРАН, 2010.
6. Ивин А.А. Основания логики оценок. Москва-Берлин. 2015.
7. Тураев Б.О. Борлик (фалсафий таҳлил) // Имом Бухорий халқаро илмий -тадқиқот маркази, Самарқанд – Тошкент: 2022
8. Формальная философия аргументации. Коллективная монография.\ под ред. Е.Н. Лисанюк.-СПб.: Алатейя, 2022.